

7-AMALIY ISH. ARGININGA SAKAGCHI REAKTSIYASI

Argininning guanidin guruhi (-naftol bilan ishqoriy muhitda gipobromid bilan oksidlanib, pushti-qizg'ish rangli kondensatsiyalangan mahsulot hosil qiladi.

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi, bug'doy oqsili, 0,05% li arginin eritmasi

Reaktivlar: natriy gidroksidning 10% li eritmasi, (-naftolning 0,2% li spirtli eritmasi, natriy gipobromidning 2% li eritmasi

Kerakli anjomlar: Probirkalar, pipetkalar, shtativlar

Ishning bajarilishi:

3 ta probirka olib, birinchisiga 5 tomchi 1% li tuxum oqsili, ikkinchisiga 5 tomchi 1% bug'doy oqsili, uchinchisiga 5 tomchi 0,05% li arginin eritmasidan quyib, hamma probirkalarga 5 tomchidan 10% li natriy gidroksid eritmasidan, 3 tomchi (-naftolning 0,2% li spirtidagi eritmasi va (1 dan 5 tomchigacha) 2% li gipobromid eritmasidan tomiziladi. Probirkalardagi suyuqlik qizil rangga kiradi.

Metioninga nitroprussid reaksiyasi

Metionin ishqoriy muhitda natriy nitroprussida bilan qizil rangli kompleks birikma hosil qiladi.

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi

Reaktivlar: natriy gidroksidning 20% li eritmasi, natriy nitroprussidning 5% li eritmasi

Ishning bajarilishi

5 tomchi oqsil eritmasiga 4-5 tomchi natriy gidroksidning 20% li eritmasidan solib, bir necha daqiqa qizdiriladi. Eritma sovutiladi va unga 2-3 tomchi natriy nitroprussid eritmasi tomiziladi. Suyuqlik qizil tusga kiardi.